

## ITALYAN VA O'ZBEK ERTAKLARIDA MADANIY VOQELIKNING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI.

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*mustaqil tadqiqotchisi*

*Ergashova Baxora Sayfillo qizi*

*ergashova.baxoram@gmail.com*

*+ 99 8(99) 892 90 05*

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada o'zbek va italyan xalq ertaklari lingvokulturologik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ertaklarda aks etgan madaniy voqelikni, milliy mentalitetni va til orqali ifodalangan konseptual tizimlarni aniqlashdan iborat. Tahlil jarayonida ertaklar xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan madaniy matn sifatida ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, har ikki xalq ertaklarida umumiy insoniy qadriyatlar, xususan ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilik asosiy syujet chizig'ini tashkil etadi hamda yaxshilikning g'alabasi universal g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, milliy xususiyatlar ham yaqqol ifodalanadi: o'zbek ertaklarida kollektivlik, oilaviy munosabatlar va hamjihatlik g'oyalari ustun bo'lsa, italyan ertaklarida individuallik, shaxsiy tashabbus va estetik ifoda yetakchi o'rinni egallaydi. Tadqiqot natijalari ertaklarning lingvokulturologik tahlil orqali madaniyatlararo o'xshashlik va farqlarni ochib berishda muhim manba ekanligini tasdiqlaydi.

**Kirish so'zlar:** lingvokulturologiya, xalq ertaklari, qiyosiy tahlil, madaniyat, konsept, mentalitet, kollektivlik, individuallik, folklor, qadriyatlar, madaniy kod

### **Аннотация.**

В данной статье проводится сравнительный анализ узбекских и итальянских народных сказок с позиций лингвокультурологического



подхода. Основной целью исследования является выявление культурной реальности,

национального менталитета и концептуальных систем, отражённых в языке сказок. В ходе анализа сказки рассматриваются как культурно значимые тексты, в которых отражены историческая память, социальный опыт и ценности народа. Результаты показывают, что обе традиции опираются на универсальные человеческие ценности, прежде всего на противопоставление добра и зла, выступающее ключевой сюжетной основой, где победа добра является доминирующей идеей. В то же время выявлены существенные различия, обусловленные национальным менталитетом: в узбекских сказках преобладают коллективизм, семейные ценности и социальная солидарность, тогда как в итальянских — индивидуализм, личная инициатива и художественно-эстетическое выражение. Полученные результаты подтверждают значимость сказок как культурно кодированных текстов для выявления сходств и различий между культурами.

Ключевые слова: лингвокультурология, народные сказки, сравнительный анализ, культура, концепт, менталитет, коллективизм, индивидуализм, фольклор, ценности, культурный код

Abstract.

This article provides a comparative analysis of Uzbek and Italian folk tales within the framework of linguocultural studies. The main objective of the research is to identify cultural realities, national mentality, and conceptual systems expressed through the language of folk narratives. In this context, folk tales are examined as culturally encoded texts that embody the historical memory, social experience, and values of a nation. The findings demonstrate that both traditions are grounded in universal human values, particularly the opposition between good and evil as the central narrative principle, where the triumph of good serves as a



dominant idea. At the same time, notable differences related to national mentality are revealed: Uzbek folk tales emphasize collectivism, family relationships, and social harmony, whereas

Italian tales highlight individualism, personal initiative, and aesthetic representation. The study confirms that folk tales serve as an important source for identifying cultural similarities and differences through a linguocultural approach.

Key words: linguoculturology, folk tales, comparative analysis, culture, concept, mentality, collectivism, individualism, folklore, values, cultural code.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganadigan muhim yo'nalish sifatida shakllandi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til faqat kommunikativ vosita emas, balki milliy madaniyatni aks ettiruvchi murakkab semiotik tizimdir. Til orqali xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, qadriyatlari va dunyoqarashi avlod-dan-avlodga uzatiladi. Shu sababli tilni o'rganish madaniyatni anglashning asosiy kaliti sifatida qaraladi. I bobda ham ta'kidlanganidek, til insonning ijtimoiy xotirasi, kollektiv ong va milliy mentalitetni ifodalovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodi, xususan ertaklar, lingvokulturologik tahlil uchun eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Chunki ertaklar xalqning asrlar davomida shakllangan tajribasi, urf-odatlar va axloqiy me'yorlarini o'zida mujassam etgan badiiy matnlardir. Ertaklar orqali jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy normalar, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar, ideal inson modeli hamda hayotiy qadriyatlar ifodalanadi. Shu bois ertaklar nafaqat estetik, balki kuchli didaktik funksiyani ham bajaradi. Lingvokulturologik yondashuv ertaklarni faqat badiiy asar sifatida emas, balki madaniy ma'nolar bilan boyitilgan, ya'ni madaniy kodlangan matn sifatida o'rganadi. Bu yondashuvga ko'ra, ertaklar til orqali ifodalangan madaniyat mahsuli bo'lib, unda xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va dunyoqarashi mujassam bo'ladi. Folklor matnlari ko'p qatlamli



semantik tuzilishga ega bo'lib, ularda kontekstual, madaniy va arxetipik ma'nolar bir vaqtning o'zida uyg'unlashadi .

Kontekstual ma'no ertakning syujeti, voqealar rivoji va qahramonlar harakati bilan bog'liq bo'lsa, madaniy ma'no xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini va ijtimoiy qarashlarini aks ettiradi. Arxetipik ma'no esa barcha insoniyatga xos bo'lgan universal obrazlar va motivlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, qahramonning sinovlardan o'tishi, yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishi yoki sehrli yordamchilarning paydo bo'lishi kabi motivlar turli xalqlar ertaklarida uchrashi bilan birga, ularning umumiy insoniy tajribaga asoslanganligini

ko'rsatadi. Ertaklarda uchraydigan obrazlar, ramzlar va motivlar muayyan xalqning milliy tafakkuri va mentalitetini ifodalovchi asosiy vositalar hisoblanadi. Obrazlar orqali insonning ijtimoiy roli, xulq-atvori va axloqiy fazilatlarini aks ettirilsa, ramzlar orqali chuqurroq madaniy va falsafiy ma'nolar beriladi. Motivlar esa ertak syujetining asosini tashkil etib, ma'lum bir g'oyaning takrorlanishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Lingvokulturologik tahlilda muhim o'rin tutadigan tushunchalardan biri bu konsept hisoblanadi. Konseptlar xalqning dunyoni idrok etish usulini ifodalovchi asosiy mental birliklar bo'lib, ular til va matn orqali namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek ertaklarida "ota", "ona", "non" kabi konseptlar alohida ahamiyat kasb etadi. "Ota" va "ona" obrazlari oilaviy qadriyatlar, hurmat va sadoqatni ifodalasa, "non" konsepti baraka, hayot va muqaddaslik ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu esa o'zbek xalqining oilaga, mehnatga va ne'matlarga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Italiyan ertaklarida esa "mamma", "pasta", "la dolce vita" kabi konseptlar keng uchraydi. "Mamma" obrazi oila markazida turgan, mehr va g'amxo'rlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. "Pasta" esa

nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki italyan madaniyatining ajralmas qismi, milliy hayot tarzi va birlik ramzi hisoblanadi. "La dolce vita" iborasi esa hayotdan zavqlanish, estetik qadriyatlarni qadrlash va yashashdan lazzatlanish g'oyasini ifodalaydi. Bu konseptlar italyan xalqining



dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini ochib beradi.

O'zbek va italyan xalq ertaklarini lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilganda, ularning eng muhim umumiy jihatlaridan biri — ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilik motivining mavjudligidir. Bu qarama-qarshilik ertak syujetining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, deyarli barcha xalq ertaklarida uchraydigan universal arxetip sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu arxetip insoniyatning qadimiy tasavvurlari, axloqiy qarashlari va hayotiy tajribasi bilan bog'liq bo'lib, turli xalqlarning madaniyatida o'xshash shaklda aks etadi. Mazkur qarama-qarshilikda yaxshilik va yomonlik aniq chegaralangan holda tasvirlanadi. Ijobiy qahramonlar odatda halollik, sabr, mehnatsevarlik, mehribonlik kabi fazilatlar bilan ajralib turadi, salbiy qahramonlar esa ochko'zlik, dangasalik, hasad va zulm timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu esa ertaklarning didaktik xarakterini kuchaytirib, o'quvchi yoki tinglovchini to'g'ri axloqiy xulosa chiqarishga undaydi. Masalan, o'zbek xalq ertaklaridan “Zumrad va Qimmat” asarida Zumrad obrazi ezgulik, poklik va sabr timsoli sifatida gavdalanadi, Qimmat esa salbiy xususiyatlarning mujassamidir. Syujet davomida ijobiy qahramon turli sinovlardan o'tib, oxir-oqibat mukofotga erishadi, salbiy qahramon esa jazoga duchor bo'ladi. Xuddi shuningdek, “Ur to'qmoq” ertagida ham halol va sodda qahramon sehr yordamida adolatsizlik ustidan g'alaba qozonadi. Italyan xalq ertaklarida ham ushbu motiv aniq ifodalangan. Masalan, “La Gatta Cenerentola” ertagida bosh qahramon qiz sabr- toqatli, kamtar va mehribon sifatida tasvirlanadi, uning atrofidagi salbiy obrazlar esa hasadgo'y va zolim xarakterga ega. Syujet yakunida yaxshilik g'alaba qiladi va qahramon baxtga erishadi. “Rosetta nel forno” ertagida ham qahramonning halolligi va yaxshi xulqi mukofotlanadi, yomon xatti-harakatlar esa jazolanadi.

O'zbek va italyan xalq ertaklarini qiyosiy tahlil qilganda, ularning syujet tuzilishi va asosiy motivlarida sezilarli o'xshashliklar mavjudligi kuzatiladi. Ko'plab ertaklarda qahramonning sinovdan o'tishi, uzoq safarga chiqishi va



yakunda mukofotga erishishi kabi an'anaviy motivlar uchraydi. Ushbu motivlar ertak

syujetining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi va voqealar rivojini belgilaydi. Qahramon odatda ma'lum bir muammo yoki adolatsizlikka duch keladi va uni hal qilish uchun safarga o'tlanadi. Bu safar davomida u turli sinovlardan o'tadi, o'zining sabr-toqati, jasorati va halolligini namoyon etadi. Natijada esa u mukofotga ya'ni baxt, boylik yoki ijtimoiy tan olinishga erishadi. Folklorshunoslikda bu kabi o'xshash syujet va motivlar "sayyor syujetlar" nazariyasi bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, turli xalqlar ertaklarida uchraydigan o'xshash voqealar, obrazlar va motivlar tarixiy-madaniy aloqalar yoki umumiy insoniy tafakkur mahsuli sifatida shakllangan. Bu esa ertaklarning universalligini va xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni ko'rsatadi. O'zbek va italyan ertaklari o'rtasidagi asosiy farqlardan biri ularning aks ettirgan madaniy muhiti va hayot tarzida namoyon bo'ladi. Har bir xalq ertaklari o'zining tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitiga mos ravishda shakllangan bo'lib, bu holat ertak mazmunida yaqqol aks etadi. O'zbek ertaklarida asosan qishloq hayoti, oddiy xalq turmushi va oilaviy munosabatlar markaziy o'rinni egallaydi. Bu ertaklarda oila jamiyatning asosiy birligi sifatida tasvirlanadi va undagi munosabatlar syujetning muhim qismini tashkil etadi. Kollektiv qadriyatlar, ya'ni jamoaviylik, o'zaro yordam, hurmat va hamjihatlik g'oyalari ustunlik qiladi. Qahramonlar ko'pincha oila yoki jamiyat manfaatlari yo'lida harakat qiladi. Italyan ertaklarida esa ko'proq shahar va saroy muhiti tasvirlanadi. Bu ertaklarda qirollar, malikalar va ijtimoiy tabaqalarga mansub qahramonlar ko'p uchraydi. Individualizm, ya'ni shaxsning o'z kuchi va irodasi bilan muvaffaqiyatga erishishi g'oyasi muhim o'rin tutadi. Qahramonlar ko'pincha o'z taqdirini o'zi belgilovchi faol shaxs sifatida gavdalanadi.

O'zbek xalq ertaklarida millatning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, donishmandligi va axloqiy qarashlari ixcham va lo'nda shaklda ifodalanadi.



Masalan, ertak davomida qahramonning harakatlari yoki voqealar rivoji ko'pincha maqollar bilan mustahkamlanadi, bu esa matnning didaktik ahamiyatini oshiradi.

Matallar esa ko'proq obrazli ifoda vositasi sifatida xizmat qilib, o'quvchini fikrlashga undaydi va yashirin ma'nolarni ochishga yordam beradi. Shu jihatdan o'zbek ertaklari xalqona til, sodda ifoda va hikmatli iboralarga boyligi bilan ajralib turadi. Italyan xalq ertaklarida esa metafora, tasviriy ifoda va obrazlilik ustunlik qiladi. Bu ertaklarda voqealar ko'proq badiiy tasvirlar, ramziy obrazlar va estetik ifodalar orqali yoritiladi. Metaforalar orqali voqelik ko'chma ma'noda ifodalanib, ertakning emotsional ta'sir kuchi oshiriladi. Obrazlar tizimi ham murakkabroq bo'lib, ular orqali nafaqat voqea, balki qahramonning ichki dunyosi, hissiyoti va psixologik holati ham ochib beriladi. Italyan ertaklarida tilning badiiyligi va obrazliliigi ularning adabiy-estetik qiymatini oshiradi va o'quvchini voqealar ichiga chuqurroq kirishga undaydi. Demak, o'zbek ertaklarida til ko'proq xalqona hikmat va didaktik mazmunga yo'naltirilgan bo'lsa, italyan ertaklarida esa badiiylilik, estetik tasvir va obrazlilik ustunlik qiladi. Bu esa har ikki xalqning til orqali dunyoni ifodalash usuli va madaniy qarashlaridagi farqlarni yaqqol ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotda o'zbek va italyan xalq ertaklari lingvokulturologik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilinib, bir qator muhim ilmiy natijalarga erishildi. Avvalo, har ikkala xalq ertaklari umumiy insoniy qadriyatlarga tayanishi aniqlandi. Xususan, ertaklarda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilik asosiy syujet liniyasini tashkil etib, yakunda yaxshilikning g'alaba qilishi g'oyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu holat ertaklarning universal axloqiy modelga asoslanganligini va ularning tarbiyaviy funksiyasi kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida milliy mentalitet bilan bog'liq muhim farqlar ham aniqlashtirildi. O'zbek xalq ertaklarida kollektivlik tamoyili, ya'ni oila, jamiyat va jamoa manfaatlarini ustun qo'yish g'oyasi yetakchi o'rin egallaydi. Qahramonlarning xatti-harakatlari ko'pincha umumiy manfaatga yo'naltirilgan



bo'lib, ijtimoiy birdamlik va hamjihatlik qadriyatlari targ'ib qilinadi. Aksincha, italyan xalq ertaklarida individuallik tamoyili ustun bo'lib, qahramonning shaxsiy

tashabbusi, faolligi va o'z taqdirini mustaqil ravishda belgilashi asosiy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ikki xalqning madaniy va ijtimoiy qarashlaridagi farqlarni aks ettiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Italo Calvino, *Fiabe italiane*, Torino: Giulio Einaudi Editore, 1956.
2. Giuseppe Pitrè, *Fiabe, novelle e racconti popolari siciliani*, Palermo: Pedone Lauriel, 1875–1913.
3. B.Sarimsoqov, Toshkent:Fan nashriyoti, 1986.
4. Muhammadqul Jonmurod o'g'li, Toshkent: G'G'ulom nashriyoti-2022.
5. Treccani. *Fiaba // Enciclopedia Italiana*. – Roma: Istituto della Enciclopedia Italiana.
6. M.Jo'rayev, J,Eshonqulov. *Folklorshunoslikka kirish*, 2017.

